
“Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunni takomillashtirish yo‘llari

Davlat boshqaruvining samarali usullarini joriy etishda, jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini ta’minlashda, ma’muriy organlar faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini oshirishda, adolatli ma’muriy qarorlar qabul qilishda ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonunchilik muhim ahamiyat kasb etadi.



Ma’muriy tartib-taomillar funksional, aniq, ma’muriy ishni ko‘rib chiqishga va adolatli qaror qabul qilishga kafolat beruvchi vositadir[1].

Ma’muriy tartib-taomillarni huquqiy tartibga solish, fuqarolarni ortiqcha ovoragarchiliklardan xalos qilish maqsadida 2018-yil 8-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilingan[2]. Ma’muriy tartib-taomil ma’muriy organlarning faoliyatini tartibga soluvchi protsessual qoidalardir.

Qonunning asosiy vazifasi ma’muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashdan iborat.

O‘zbekistonda ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari nafaqat ushbu qonun, balki boshqa qonun hujjatlaridan ham iborat. Maxsus ma’muriy tartib-taomillarni belgilovchi qonun hujjatlari jismoniy va yuridik shaxslarning holatini ushbu qonunga nisbatan yomonlashtirmasligi kerak.

Qonunchilikka muvofiq davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari,

[1] Ponce Sole. Good Administration and administrative procedures. Vol. 12. P. 2–3.
[2] https://www.lex.uz/docs/3492199.

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa tashkilotlar va maxsus komissiyalar ma’muriy organlar hisoblanadi.

Qonun ma’muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan ma’muriy-huquqiy faoliyatiga, shu jumladan, litsenziya, ruxsat berish, ro‘yxatdan o‘tkazish tartibiga, davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq boshqa tartiblarga, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ma’muriy-huquqiy faoliyatga nisbatan tatbiq etiladi[3].

Bundan qonun qo‘llanadigan sohalarni kengaytirish kerakligi ko‘rinadi. Bu esa ko‘proq ma’muriy munosabatlarni yagona hujjat bilan tartibga solish imkonini beradi.

Maksim Yefremovning fikricha, ma’muriy tartib-taomillar hokimiyatning davlat boshqaruvi jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan harakatlarining tartibini ifodalaydi, ularning maqsadi ma’muriy huquqning moddiy normalarini amalga oshirishdir.

Ma’muriy tartib-taomillar huquq subyektlarining o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishi normativ ravishda belgilangan tartibdir[4].

Ammo amaldagi qonunning ma’muriy-huquqiy faoliyatga nisbatan tatbiq etilishi doirasi to‘liq emas, qonunda belgilangan mexanizmlarni amalga oshirishda ayrim kamchiklar mavjud. Bu qonunni qo‘llashda muammo keltirib chiqarmoqda.

Ushbu huquqiy bo‘shliqni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni inobatga olgan holda «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi qonunni yangi tahrirda qabul qilish maqsadga muvofiq:

1. Qonun 2018-yilda qabul qilingan bo‘lsa-da, ayrim qonunosti hujjatlari unga muvofiqlashtirilmagan. Natijada davlat organlari ushbu qonunga nomuvofiq bo‘lgan qonunosti hujjatlaridan yoki o‘zlarining ichki hujjatlaridan foydalanib kelmoqda. Shu sababli qonunosti hujjatlarini ushbu qonunga muvofiqlashtirish kerak.

2. Ma’muriy organlar ma’muriy tartib-taomillar bilan bog‘liq ariza va shikoyatlarni «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonun asosida ko‘rib chiqmoqda. «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi qonunda «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonundan farqli talab va mexanizmlarni aniq begilash (ajratish) lozim.

3. Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib qonunga «o‘zboshimchalikni taqiqlash», «vakolatni suiiste’mol qilishni taqiqlash», «huquqni qo‘llashni rad etishga yo‘l qo‘yilmasligi» prinsiplarini kiritish kerak. Ushbu prinsip mansabdorlarning to‘g‘ri qaror qabul qilishiga xizmat qiladi.

Masalan, Latviyaning «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi qonuni 9-moddasida o‘zboshimchalikni taqiqlash prinsipi mavjud.

Qonunning muhim prinsiplaridan bo‘lgan «ishonchning himoya qilinishi», «mutanosiblik», «ma’muriy ixtiyoriylikning qonuniyligi» hamda «tinglanish imkoniyatining mavjudligi» prinsiplarining tushunchasi va qo‘llanishini aniqlashtirib bayon qilish zarur.

4. Qonunda ma’muriy hujjat faqat yozma shaklda qabul qilinishi belgilangan. Lekin amaliyotda ma’muriy hujjatlar nafaqat yozma, balki elektron, og‘zaki va belgilar shaklida ham qabul qilinadi.

Shuning uchun qonunda ma’muriy hujjatni yozma, elektron yoki og‘zaki shaklda, belgilar, ishora va signallar, tasdiqlovchi hujjat berish yoki muayyan harakatni avtomatik vositalar yordamida amalga oshirish yo‘li bilan qabul qilish mumkinligini belgilash kerak.

5. Qonunning 59-moddasidagi ma’muriy hujjatni bekor qilish, o‘zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish asoslarini quyidagilarni inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqish lozim.

Jumladan, bekor qilish kelgusi davr uchun yoki orqaga qaytish kuchi bilan amalga oshirishni, manfaatdor shaxsning foydasiga yoki zarariga bekor qilishni, ma’muriy hujjatni kim qanday tartibda bekor qilishi (o‘zgartirishi) mumkinligini, manfaatdor shaxsning manfaatiga zid ravishda bekor qilishda ishonchni himoya qilishni kafolatlash, «qonuniy ma’muriy hujjatni bekor qilish» va «g‘ayriqonuniy ma’muriy hujjatni bekor qilish»ning huquqiy mexanizmlarini alohida moddalarda belgilash kerak.

6. Qonunda protsessual hujjatni qabul qilish shakli, rasmiylashtirish tartibi, protsessual hujjatga qo‘yiladigan talablarni va amalga oshirish mexanizmlarini belgilash zarur.

7. Qonunga dastlabki ma’muriy hujjat tushunchasini kiritish lozim. Chunki dastlabki ma’muriy hujjat komissiyalar va boshqa organlar ishning muayyan holatini belgilash uchun chiqaradigan dastlabki qarorlar bo‘lib, ular ma’muriy organning yakuniy qaror chiqarishiga asos bo‘ladi.

8. Qonunda ma’muriy shikoyat to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori turuvchi organga berilganda ushbu organ shikoyat qilinayotgan ma’muriy hujjatni quyi organdan so‘rab olishi va ko‘rib chiqishi mexanizmini belgilash kerak.

[3] https://www.lex.uz/docs/3492199.

[4] Вопросы совершенствования отдельных институтов административного законодательства в Республике Узбекистан // Сборник материалов по международному опыту в сфере административного права (24 мая 2005 г.). Ташкент, 2005. С. 34.

9. Qonunning qo‘llanish sohasini kengaytirish, ya’ni soliq, bojxona tartibiga, davlat nazorati va tekshiruvi, fuqarolarning pensiya ta’minoti va davlat xizmatlarini ko‘rsatish, harbiy ro‘yxatga olish va harbiy xizmatga chaqirish, shaharsozlik jihatidan rejalashtirish, yer bo‘lagini ajratish va olib qo‘yish tartibiga nisbatan tatbiq etilishini belgilash lozim.

10. Qonunga «ma’muriy jihatdan ko‘maklashish» moddasini kiritish va ko‘maklashish tartibi, muddati va mexanizmlarini belgilash zarur.

11. Qonunga umumiy vakil institutini kiritish lozim. Bu orqali jamoaviy murojaatlarni ko‘rib chiqishda aholiga va ma’muriy organlarga qulaylik yaratiladi. Ushbu amaliyot Germaniyaning «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi qonunida mavjud;

12. Ma’muriy ish yuritishda «uchinchi shaxs»ni xabardor etish va ishga jalb qilish mexanizmlarini belgilash kerak.

13. Ma’muriy ish yuritishda huquqiy vorislikni qayta ko‘rib chiqish va ish yuritishdan chiqib ketgan ishtirokchining o‘rnini egallagan huquqiy vorisning huquqlarini belgilash lozim.

14. Qonunda ma’muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi shaxsning ma’muriy organga dalillar taqdim etishi va ishning barcha haqiqiy holatlarini aniqlashda ko‘maklashish, dalillarni talab qilib olish asoslarini belgilash zarur.

15. Qonunda ekspert, mutaxassis va tarjimonni ma’muriy ish yuritishga jalb qilish, xarajatlarini qoplash tartibini belgilash kerak.

16. Qonunning 37-moddasida ma’muriy ish yuritishda qatnashayotgan manfaatdor shaxs muomala layoqatini yo‘qotganda ma’muriy ish yuritishni to‘xtatib turishni, ma’muriy organning ma’muriy ish yuritishni to‘xtatib turishga haqli bo‘lgan va to‘xtatib turishi shart bo‘lgan holatlarini belgilash lozim.

17. Ma’muriy tartib-taomillarning ochiqligini ta’minlash maqsadida «ommaviy reestrni yuritish»ni joriy etish kerak.

18. Qonunda arizachi arizasini istalgan paytda qaytarib olishga haqliligini belgilash shart.

19. Ma’muriy hujjat qabul qilinguniga qadar ma’muriy organ huquqlariga daxl qilinishi mumkin bo‘lgan manfaatdor shaxslarni tinglashi va o‘z fikrini bayon etishiga imkon berishi shartligi to‘g‘risidagi normani kiritish lozim.

20. Qonunning 47-moddasini majlisda ko‘rilishi majburiy bo‘lgan ma’muriy ishlarning turlari bilan to‘ldirish (ularning ro‘yxatini aniq belgilash), majlisni videokonferensaloqa rejimida o‘tkazish mumkinligini belgilash kerak.

21. Qonunga «ma’muriy hujjatning haqiqiyligi»ni (hujjatning yuridik kuchga kirishi), «ma’muriy hujjatning haqiqiy emasligi»ni (qaysi turdagi ma’muriy hujjat haqiqiy emas deb hisoblanishi, o‘z-o‘zidan haqiqiy emasligi, vakolatli organ yoki sudning haqiqiy emas deb topishi) belgilash zarur.

22. Qonunda ma’muriy hujjatni tushuntirib berish yoki yozuvdagi xatolarni tuzatish haqidagi murojaatni necha kunda ko‘rib chiqish shartligi belgilanmagan. Shu sababli 56-moddada ma’muriy hujjatni tushuntirib berish yoki yozuvdagi xatolarni tuzatishning aniq muddatini belgilash kerak.

23. Qonunda ma’muriy shikoyatni ma’muriy organning o‘zi yoki uning yuqori turuvchi organi yoxud boshqa vakolatli organ sudgacha ko‘rib chiqishi mexanizmini belgilash maqsadga muvofiq. Ushbu tartibning joriy etilishi ma’muriy hujjatning to‘g‘riligini qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi, aholi ovoragarchiligining oldini oladi, sudlarning yuklamasini kamaytiradi.

24. Qonunda ma’muriy hujjat natijasida pulli talablarni majburiy ijro ettirish zarurati yuzaga kelganda uni ijro etish mexanizmini, ma’muriy organning adresatga pulli talab qo‘yish haqidagi hujjati ijro hujjati hisoblanishini hamda pul «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi qonun asosida davlat ijrochilari tomonidan undirilishini belgilash lozim.

Ushbu talablar Ozarbayjonning «Ma’muriy ishlarni yuritish to‘g‘risida»gi qonunining 82-moddasida[5] hamda Qirg‘izistonning «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi qonunining 84-85-moddalarida mavjud.

25. Qonunda ma’muriy hujjatning ijro etilishiga yengilroq choralar bilan erishish mumkin bo‘lsa, ma’muriy organ og‘irroq choralarini qo‘llashga haqli emasligini belgilash lozim.

26. Qonunda ma’muriy hujjatni ixtiyoriy ijro etish muddati besh kalendar kundan kam bo‘lmasligi belgilangan. Ixtiyoriy ijro uchun yetarli vaqt berish maqsadida ushbu muddatni o‘n kalendar kun deb o‘zgartirish kerak.

«Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi qonunning ushbu takliflarni inobatga olgan holda takomillashtirilishi fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini, shaffofligini hamda ushbu organlarning hisobdorligini oshirishga, ma’muriy organlar va manfaatdor shaxslarning o‘zaro munosabatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Bunyod AZIZOV,
mustaqil izlanuvchi

[6] Закон Республики Азербейджан «Об административном производстве». 21.10.2005. Сборник законодательных актов по административным процедурам – 500 стр (2013 г.). Алматы.